

INTERNET TARMOG‘I LEKSIKASIDA METAFORALASHUV JARAYONI: O‘ZBEK, INGLIZ, ISPAN VA RUS TILLARI MISOLIDA

Ismoilova Kamola Bahrom qizi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlar (internet) leksikasida metaforalashuv jarayonining lingvistik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda o‘zbek, ingliz, ispan va rus tillarida ijtimoiy tarmoqlar bilan bog‘liq leksik birliklarning metaforik ma‘noda qo‘llanishi, ularning semantik transformatsiyasi hamda lingvokulturologik xususiyatlari o‘rganiladi. Shuningdek, raqamli kommunikatsiya jarayonida shakllangan metaforik birliklarning zamonaviy internet diskursidagi funksional ahamiyati yoritiladi.

***Kalit so‘zlar:** metaforalashuv, ijtimoiy tarmoqlar leksikasi, internet diskursi, qiyosiy tilshunoslik, lingvokulturologiya, semantik transformatsiya, raqamli kommunikatsiya.*

ПРОЦЕСС МЕТАФОРИЗАЦИИ В ЛЕКСИКЕ ИНТЕРНЕТ-СЕТИ: НА МАТЕРИАЛЕ УЗБЕКСКОГО, АНГЛИЙСКОГО, ИСПАНСКОГО И РУССКОГО ЯЗЫКОВ

Исмоилова Камола Бахром кизи

Узбекского государственного университета мировых языков

АННОТАЦИЯ

В данной статье проводится сравнительный анализ процесса метафоризации в лексике социальных сетей (интернет). В исследовании рассматривается метафорическое употребление лексических единиц, связанных с социальными сетями, в узбекском, английском, испанском и русском языках, их семантическая трансформация и лингвокультурологические особенности. Особое внимание уделяется функциональной значимости метафорических единиц, сформировавшихся в цифровой коммуникации в современном интернет-дискурсе.

***Ключевые слова:** метафоризация, лексика социальных сетей, интернет-дискурс, сравнительное языкознание, лингвокультурология, семантическая трансформация, цифровая коммуникация.*

THE PROCESS OF METAPHORIZATION IN THE LEXICON OF THE INTERNET NETWORK: BASED ON UZBEK, ENGLISH, SPANISH AND RUSSIAN LANGUAGES

Ismoilova Kamola Bakhrom kizi

Uzbekistan State World Languages University

ABSTRACT

This article presents a comparative analysis of the process of metaphorization in the vocabulary of social networks (internet). The study examines the metaphorical use of lexical units related to social media in Uzbek, English, Spanish, and Russian, their semantic transformation, and linguocultural features. Particular attention is paid to the functional significance of metaphorical units formed in digital communication within modern internet discourse.

Keywords: *metaphorization, social network vocabulary, internet discourse, comparative linguistics, linguoculturology, semantic transformation, digital communication.*

KIRISH

Zamonaviy tilshunoslikda metafora endilikda faqat badiiy tasvir vositasi sifatida emas, balki inson tafakkuri va konseptual dunyoqarashining asosiy kognitiv mexanizmlaridan biri sifatida talqin etilmoqda. Ayniqsa, XXI asr kognitiv lingvistikasi metaforani insonning borliqni anglash, tajribani kategoriyalash va abstrakt tushunchalarni izohlash usuli sifatida o'rganishga katta e'tibor qaratmoqda. Bugungi ilmiy qarashlarga ko'ra, metafora tilning bezagi emas, balki tafakkurning o'zi, deb qabul qilinmoqda. Shu bois metaforalarni o'rganish til, inson, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib berishda muhim metodologik vosita hisoblanadi.

So'nggi yillardagi tadqiqotlarda metaforaning sun'iy intellekt, media diskurs, siyosiy kommunikatsiya, gender tadqiqotlari va madaniyatlararo muloqotdagi roli alohida dolzarblik kasb etdi. Xususan, global axborot makonida metaforalar jamoatchilik ongini shakllantirish, ijtimoiy stereotiplarni yaratish va mafkuraviy ta'sir o'tkazishda strategik vosita sifatida ham namoyon bo'lishi chuqur o'rganilmoqda. Masalan, pandemiya davrida "ko'rinmas yov", "kasallik yoyilishini jilovlamoq", "saxovat karvoni" kabi metaforalar tibbiy diskursning asosiy konseptual modellariga aylangan edi.

Kognitiv metafora nazariyasiga ko'ra, inson abstrakt tushunchalarni konkret tajriba asosida anglaydi. Shu sabab "vaqt – pul/oltin", "hayot – yo'l", "ilm – nur",

“vaqt/umr – oqar daryo” kabi metaforik modellar turli xalqlarning lisoniy manzarasida keng uchraydi. Biroq har bir xalq metaforalarni o‘z milliy-madaniy tajribasi asosida shakllantiradi. Demak, metafora nafaqat lingvistik, balki madaniy va mental hodisa hamdir.

Bugungi tarjimashunoslikda ham metafora eng murakkab birliklardan biri sifatida qaraladi. Chunki metaforani tarjima qilishda faqat semantik ma’no emas, balki uning ortidagi milliy-madaniy kod, emotsional rang va pragmatik ta’sirni ham qayta yaratish talab etiladi. Ayniqsa, sun’iy intellekt asosidagi avtomatik tarjima tizimlari metaforalarning yashirin konseptual qatlamlarini to‘liq anglay olmasligi sababli, bu masala zamonaviy lingvistikaning eng dolzarb ilmiy muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda (Baxronova at all, 2025).

METODOLOGIYA.

Bu yo‘nalishda o‘zbek ilm-fanida ham M.Mirtojiyev, O‘.Yusupov, N.Mahmudov, D.Xudayberganova, A.Yuldashev, Sh.Mahmaraimova, N.Altinbayev kabi qator olimlar tadqiqot olib borganlar. Shu jumladan, D.Baxronovanning ilmiy tadqiqotlari zamonaviy kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya va tarjimashunoslik yo‘nalishlarida metaforaning o‘rnini chuqur yoritishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Olimaning ilmiy qarashlarida metafora oddiy badiiy vosita emas, balki inson tafakkuri, mentaliteti va milliy-madaniy dunyoqarashni shakllantiruvchi kognitiv mexanizm sifatida talqin qilinadi. Uning tadqiqotlarida metafora til, tafakkur va madaniyatning uzviy bog‘liqligini aks ettiruvchi semantik model sifatida izohlanadi (Baxronova, 2022).

D.Baxronova tadqiqotlarida konseptual metafora nazariyasiga tayangan holda o‘zbek, ispan va ingliz tillaridagi metaforik birliklarni qiyosiy-chog‘ishtirma tahlil qiladi. Ayniqsa, gender metaforalari, iqtisodiy va rasmiy diskursdagi metaforalar, hayvon obrazlari bilan bog‘liq konseptual modellar hamda tarjimada metaforaning transformatsiyasi olimaning muhim tadqiqot yo‘nalishlari hisoblanadi. Tadqiqotlarda metafora insonning mental leksikoni va lingvistik ongini shakllantiruvchi asosiy vositalardan biri sifatida baholangan. Olimaning fikricha, metafora til egasining milliy-madaniy kodlari, tarixiy xotirasi va qadriyatlar tizimini aks ettiradi. Shu sababli metaforalarni tarjima qilish jarayonida faqat lingvistik emas, balki lingvokulturologik yondashuv ham muhimdir. D.Baxronova metaforalarni “olamning lisoniy manzarasi”ni ochib beruvchi konseptual birlik sifatida talqin etib, ularning tarjima jarayonidagi kategorial, pragmatik va semantik murakkabliklarini ilmiy asosda izohlaydi. Uning ilmiy ishlari bugungi kunda kognitiv tilshunoslik va madaniyatlararo kommunikatsiya tadqiqotlari uchun muhim nazariy manbalardan biri hisoblanadi.

Metaforik birliklarni bugungi kunda jadal rivojlanayotgan, turli tillarda o‘z va o‘zlashma birliklar hisobiga terminologik qatlamini boyitib borayotgan internet hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) tizimi doirasida o‘rganish zarurati tobora ortib bormoqda. Raqamli transformatsiya jarayonining kuchayishi, global kommunikativ makonning kengayishi va internet diskursining kundalik hayotga chuqur kirib borishi yangi lingvistik birliklar, xususan, metaforik terminlarning faol shakllanishiga olib kelmoqda. Sh. Ziyamuxmedovanning ta’kidicha, internet sohasiga bo‘lgan qiziqish va ehtiyojning ortishi, o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi funksional imkoniyatlarining kengayishi, shuningdek, zamonaviy aloqa vositalari hamda internet kabi ko‘p kanalli axborot manbalarining faollashuvi yangi terminologik birliklarni yuzaga keltirmoqda. Natijada til tizimida internet va AKT bilan bog‘liq ko‘plab yangi nominativ hamda ko‘chma ma’noli birliklar paydo bo‘lmoqda.

Biroq internet diskursiga oid metaforik birliklar, ayniqsa, ularning kognitiv-semantik va lingvokulturologik xususiyatlari o‘zbek tilshunosligida hanuzgacha monografik planda yetarli darajada tadqiq etilmagan. Holbuki, metaforalar internet makonidagi abstrakt tushunchalarni anglash, texnologik jarayonlarni ommalashtirish va yangi raqamli reallikni inson tafakkuriga moslashtirishda muhim konseptual vosita vazifasini bajaradi. Quyida D. Baxronovanning metafora, lingvokulturologiya va konseptual tafakkurga oid ilmiy-nazariy qarashlariga tayangan holda internet va AKT tizimiga oid metaforik birliklarning ayrim semantik-kognitiv xususiyatlari qisqacha tahlil qilinadi.

TAHLIL.

Bugungi kunda internet insoniyat hayotining muhim qismiga aylanib ulgurdi. Insonlar kundalik hayotida ma’lumot izlash, o‘qish, mehnat qilish va muloqotga kirishish uchun internetdan keng foydalanmoqda. Shu sababli internet bilan bog‘liq ko‘plab yangi iboralar va til birliklari paydo bo‘lgan-ki, ular kundalik hayotda faol qo‘llanilmoqda. Qiziqarli jihati shundaki, turli tillarda internetdan foydalanishni ifodalovchi iboralar ko‘pincha ko‘chma ma’no asosida shakllangan. Masalan, ingliz tilida “surf the internet”, ispan tilida “navegar por internet”, rus tilida “серфить в интернете”, o‘zbek tilida esa “internetga sho‘ng‘imoq” yoki “internetni kezib chiqmoq” kabi birikmalar ishlatiladi. Mazkur maqolada ushbu iboralar o‘zbek, ingliz, ispan va rus tillarida qiyosiy-chog‘ishtirma tahlil qilindi.

Tilshunoslikda ko‘chma ma’no muhim hodisalardan biri hisoblanadi. So‘zning asl ma’nosi boshqa bir hodisa yoki tushunchani tasvirlash uchun ishlatilganda ko‘chma ma’no yuzaga keladi. Bunday ko‘chma ma’no ko‘pincha metafora orqali yuzaga keladi. Metafora bu ikki xil hodisa o‘rtasidagi o‘xshashlik asosida birining

nomini ikkinchisiga ko‘chirish jarayonidir. Internet bilan bog‘liq iboralar ham ko‘pincha metaforik xarakterga ega. Insonning internet sahifalari orasida harakatlanishi ko‘pincha *dengizda suzish, to‘lqin ustida harakat qilish yoki suvga sho‘ng‘ish* kabi jarayonlarga qiyoslanadi.

Ingliz tilida eng mashhur iboralardan biri “surf the internet” hisoblanadi. “Surf” so‘zi aslida dengiz yoki okeandagi to‘lqinlar ustida maxsus taxta yordamida harakatlanishni bildiradi. Bu sport turi “surfing” deb ataladi. “Surf the internet” iborasidagi **surf** so‘zi ingliz tilida dastlab “qirg‘oqqa uriladigan dengiz to‘lqinlari” ma‘nosini bildirgan. Keyinchalik bu so‘z “to‘lqin ustida harakatlanish” (surfing) ma‘nosida ishlatila boshlagan.

1990-yillarda internet ommalashgach, **surf** so‘zi metaforik ma‘noda qo‘llanib, internet sahifalari bo‘ylab erkin harakatlanish, ya‘ni sahifadan sahifaga o‘tib ma‘lumot izlashni anglatadigan “surf the internet” iborasini hosil qilgan. Internet paydo bo‘lgach, foydalanuvchilarning turli saytlar orasida tez va erkin harakatlanishi aynan shu jarayonga o‘xshatilgan. Demak, “surf the internet” iborasi internet sahifalarini ko‘rish, ma‘lumot izlash yoki saytlar orasida sayr qilish ma‘nosini anglatadi. Ingliz tilida yana “browse the web” iborasi ham mavjud. “Browse” so‘zi aslida kitob yoki jurnallarni tez-tez varaqlab ko‘rish ma‘nosini bildiradi. Internetda ma‘lumotlarni ko‘rib chiqish jarayoni ham shu harakatga o‘xshatilgani uchun bu ibora keng qo‘llanila boshlagan, masalan, ushbu “*You may already know that you can use a computer to type documents, send email, play games, and browse the Web*” gapni Google tranlate o‘zbek tiliga quyidagicha tarjima qildi: “*Siz allaqachon kompyuterdan hujjatlarni yozish, elektron pochta xabarlarini yuborish, o‘yinlar o‘ynash va **internetda sayr qilish** uchun foydalanishingiz mumkinligini bilishingiz mumkin*”. Bu gapda ingliz tilidagi Web ya‘ni sahifa so‘zi o‘zbek tiliga internet tarzida tarjima qilingan, gapning metaforik xususiyati “sayr qilish” birikmasida saqlangan.

Ispan tilida internetdan foydalanishni ifodalash uchun “navegar por internet” iborasidan foydalaniladi. “Navegar” so‘zining asl ma‘nosi “Dengizda kema yoki qayiq bilan suzish, ya‘ni dengiz bo‘ylab harakat qilish” deganidir. Bu so‘z navis (“kema”) va agere (“harakatlantirmoq, boshqarmoq”) so‘zlaridan tashkil topgan. Uning ildizi undan ham qadimgi proto-hind-yevropa tilidagi nau- (“kema”) ildiziga borib taqaladi. Shu ildizdan ingliz tilidagi *navy* va *naval*, fransuz tilidagi *navire*, hamda ispan tilidagi *nave*, *navío*, *navegación* kabi so‘zlar ham kelib chiqqan. O‘zbek tilida ham Yandeks kabi ilovalardan foydalanishda *navegatsiya* termini qo‘llanilishi uchraydi, dengizga oid bu so‘z quruqlikda ham to‘g‘ri manzilga olib borish mazmunida ishlatiladi.

Dastlab dengizda suzishni anglatgan *navegar* fe'li keyinchalik metaforik ma'noda *internet sahifalari bo'ylab harakatlanishni* ifodalash uchun ham qo'llanila boshlagan. Bu yerda ham metafora mavjud: foydalanuvchi internet sahifalari orasida xuddi dengiz bo'ylab suzayotgan kemaga o'xshatiladi. Natijada internetdan foydalanish jarayoni "internet bo'ylab suzish" yoki "internet bo'ylab sayohat qilish" sifatida tasvirlanadi.

Rus tilida ham ingliz tilining ta'siri seziladi. Masalan, "серфить в интернете" iborasi keng qo'llaniladi. Bu ibora ingliz tilidagi "surf" so'zidan olingan bo'lib, asl ma'nosi suv to'lqinlari ustida harakat qilishni bildiradi. Biroq rus tilida bu ibora ko'chma ma'noda internet sahifalarini ko'rish, ma'lumot izlash yoki saytlar orasida harakatlanish jarayonini anglatadi.

O'zbek tilida internet bilan bog'liq iboralar nisbatan yangi shakllanmoqda. Ko'pincha "internetda izlash", "internetni ko'zdan kechirish", "internetni kezib chiqish" kabi iboralar ham ishlatiladi. Ba'zan esa metaforik tarzda "internetga sho'ng'imoq" "internetga sho'ng'ib ketmoq" iboralari ham qo'llanadi.

"Sho'ng'imoq" so'zining asl ma'nosi suv ostiga kirish yoki suvga chuqur tushishni anglatadi. Ko'chma ma'noda esa bu so'z insonning biror faoliyatga to'liq berilib ketishini ifodalashi mumkin. Internetga nisbatan qo'llanganda esa bu ibora foydalanuvchining internetdagi ko'plab ma'lumotlar ichiga chuqur kirib borishini anglatadi va hozirgi davrda odamlar shu darajada internetga berilib ketyaptiki, bu holat xuddi suv tubiga chuqur sho'ng'ib ketganga o'xshatiladi.

XULOSA

Ko'rib chiqilgan misollardan kuzatiladiki, turli tillarda internetdan foydalanishni ifodalash uchun o'xshash metaforalar qo'llaniladi. Ingliz tilida to'lqin ustida harakat qilish, ispan tilida dengizda suzish, rus tilida esa ingliz tilidan olingan "surf" fe'li ishlatiladi. O'zbek tilida esa suvga sho'ng'ish yoki biror joyni kezib chiqish kabi ifodalar uchraydi. Bu holat shuni ko'rsatadiki, insonlar yangi texnologiyalarni tushuntirish uchun ko'pincha tanish va kundalik tajribaga asoslangan obrazlardan foydalanadi. Dengiz, suv yoki harakat bilan bog'liq metaforalar esa internetdagi erkin va uzluksiz harakatni tasvirlash uchun juda mos keladi. Xulosa qilib aytganda, internet bilan bog'liq iboralar turli tillarda ko'pincha metaforik asosda shakllangan. Ingliz tilidagi "surf the internet", ispan tilidagi "navegar por internet", rus tilidagi "серфить в интернете" va o'zbek tilidagi "internetga sho'ng'imoq" kabi iboralaridagi fe'llar aslida boshqa harakatlarni bildirgan, ammo ko'chma ma'noda internetdan foydalanish jarayonini ifodalab keladi. Bu misollar tilning boyligi va uning yangi texnologiyalarga moslashish qobiliyatini yaqqol ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. Бахронова, Д. К. (2020). Метафоры в языковой картине мира (на материале английского и испанского языков). Молодой ученый, (1), 225-228.
2. ACADEMIA RURAL DIGITAL. Guía para aprender a usar internet: todo lo que necesitas saber. <https://academiaruraldigital.es/guia-aprender-usar-internet/>
3. Albarello Francisco (2011). Leer/navegar en Internet. Edition: 1ra. Publisher: Ediciones La Crujía Editor: Damián Fernández Pedemonte ISBN: 978-987-601-136-5. 3.
4. Bakhronova, D. (2021). Las palabras y la cultura. Lengua, globalización e interculturalidad / Words and Culture: Language, Globalization and Interculturality. Religación. Revista de Ciencias Sociales y Humanidades, 6(27), 239–246. <https://doi.org/10.46652/rgn.v6i27.781>
5. Bakhronova, D., & Abduraimov, S. (2022). The influence of the national-cultural image of the world on the construction of metaphors in the poetic discourse. ECS Transactions, 107. <https://iopscience.iop.org/article/10.1149/10701.13113ecst>
6. Bakhronova, D., et al. (2025). Intelligent Information Security System for Language and History Education Using Machine Learning-Based Intrusion Detection Algorithm. Journal of Internet Services and Information Security, 15(1), 520–529. <https://doi.org/10.58346/JISIS.2025.I1.034>
7. Baxronova D.K, Hakimov X. Jinoyat-protsessual tilidagi obrazli ifodalar: metafora madaniyat ko‘zgusi sifatida.// Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammolari: ko‘p tillilik va madaniyatlararo mulogot xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. Toshkent, 2025. – B. 198-201.
8. Baxronova, D., & Uktamova, K. (2025). Metamadaniyat fenomeni madaniyatlararo muloqotning yangi ufqi sifatida. The Lingua Spectrum, 8(1), 49-53.
9. https://www.researchgate.net/publication/351099610_Learnavegar_en_Internet#fullTextFileContent
10. Маҳмудов Н.М. ва бошқалар. Антропоцентрик тилшунослик: тушунча ва терминлар // Монография. – Тошкент: “Тубо нашр”, 2022. – 206 б.
11. Ziyamuxamedova Sh.T. O‘zbek tili axborot-kommunikatsiya terminologiyasi (internet va mobil aloqa misolida). Monografiya. Toshkent, 2021. – 126 b.